

Laylo JO'RAYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
"O'zbek va rus tillari" kafedrası o'qituvchisi
E-mail: laylojoyayeva2096@gmail.com
Tel: 998930832096

BuxDU professori Y.S. Saidov taqrizi asosida

LINGUISTIC STUDY OF FOOD AND PLANTS IN NAVOI'S WORKS

Annotation

In the article, the words expressing the concepts of food, drink and plants in Alisher Navoi's works are studied in the lexical-semantic and linguistic-cultural aspect, their place and expression in the system of Uzbek linguistic-cultural realities is highlighted, the relationship of the current Uzbek literary language to these names is studied, the specific lexical meaning and phonetic form changes are revealed and evidenced by material in artistic texts.

Key words: linguoculturology, linguocultural, associative, language, word, reality, lexeme, dictionary, archaism, historicism.

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПИЩИ И РАСТЕНИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ НАВОИ

Аннотация

В статье слова, выражающие понятия еда, пите и растения в произведениях Алишера Навои, изучаются в лексико-семантическом и лингвокультурологическом аспекте, выделяется их место и выражение в системе узбекских лингвокультурных реалий, взаимосвязь. Изучено отношение современного узбекского литературного языка к этим названиям, выявлены специфические лексические значения и изменения фонетических форм, что подтверждается материалом художественных текстов.

Ключевые слова: лингвокультурология, лингвокультурология, ассоциативность, язык, слово, действительность, лексема, словарь, архаизм, историзм.

NAVOIY ASARLARIDAGI OZIQ-OVQAT VA O'SIMLIK LARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat, ichimlik hamda o'simlik tushunchalarini ifodalovchi so'zlar leksik-semantik va lingvomadaniy aspektda tadqiq etilgan, ularning o'zbek lingvokulturologik realiyalari tizimidagi o'rni va ifodalanishi yoritilgan, hozirgi o'zbek adabiy tilining mazkur nomlarga munosabati o'rganilgan, leksik ma'no va fonetik shaklda yuz bergan muayyan o'zgarishlar ochib berilgan va badiiy matnlardagi ashyoviy materiallar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, lingvomadaniy, assotsiativ, til, so'z, realiya, leksema, lug'at, arxaizm, tarixizm.

Kirish. Buyuk adib Alisher Navoiyning she'riy asarlari tilida turli sohalarga oid leksemalar tizimida realiyalar, chunonchi, oziq-ovqat, ichimlik hamda o'simlik nomlari muhim o'rin tutadi. Ular uzoq tarixga ega xalqimizning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida ahamiyatli va muhim ma'lumotlar beradi. Ayonki, realiyalar u yoki bu xalqning tarixi, madaniyati, dunyoqarashi, dini, maishiy hayotiga xos predmet, voqea-hodisa va tushunchalarni ifodalovchi xos so'zlardir. Realiyalar so'z birikmalari, frazeologizm va maqol ham bo'lishi mumkin. Shoir ijodida oziq-ovqat nomlari alohida leksik va madaniy tizim sifatida shakllangan bo'lib, ular o'zbek xalqining yashash tarzi xususida aniq tushunchalar beradi. Mazkur oziq-ovqat va ichimlik nomlarining ayrimlari hozirgi o'zbek xalqining kundalik turmushida faol iste'molda bo'lsa, ba'zilari eskirib, tarixizmga aylangan. Dastlab hozirgi hayotda mavjud bo'lgan oziq-ovqat va ichimlik nomlarini tahlil etishga harakat qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Adibning quyidagi baytiga e'tibor qarataylik:

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Bismil etgach saydni andoqki etkaylar *kabob*,

Zaxm etib ko'nglumni chunkim oqti qonim o'rtading. [1,257]

Baytning birinchi misrasida qo'llangan *bismil* so'zining lug'aviy ma'nosi *so'yish, bo'g'izlash*dir. Ayonki, mazkur misradagi *sayd* leksemasining asl lug'aviy ma'nosi *ov jarayoni* bo'lib, ushbu leksema hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi. *Zaxm* so'zining lug'aviy ma'nosi esa *yaradir*. G'azalda realiyalar tizimiga tegishli *kabob* ovqat turi bo'lib, bugungi kun tilimizda ancha faol leksema sanaladi. Mazkur so'z aslida arab tilga tegishli bo'lib, *qo'rada pishirilgan go'sht* ma'nosini ifodalaydi. Bu so'z arabcha ko'p ma'noli *kabba* fe'lining „aylantirib turdi“ ma'nosi bilan hosil qilingan birinchi bob masdari bo'lib, „sixga tortilgan go'shtni cho'g' ustida aylantirib turib pishiriladigan taom“ ma'nosini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu leksema quyidagicha tavsiflangan: "Asosan, go'shtni sixga tortib, qo'raga terib, cho'g' damida pishiriladigan, shuningdek, tandirda yoki qozonda ham tayyorlanadigan taom, keyin esa go'shtdan qovurib tayyorlanadigan ayrim o'zbek milliy taomlari ma'nosini anglatadi. Jigar kabob, lo'la kabob, qiyma kabob kabi. *Kabob* leksemasi ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. Masalan: bag'ri (yoki yuragi, dili, jigari, ko'ksi) kabob bo'lmoq iborasi *qattiq kuyinmoq, ruhiy azob tortmoq* majoziy ma'nosida qo'llaniladi. Misol: *Dili kabob bo'lgan Polvon bu yigit voqesini to'laroq bilmog'chi edi*. J. Sharipov. Xorazm".

Bayt mazmunida ovdan so'ng hayvon qonini oqirib, kabob tayyorlash holati aks ettirilgan. Baytda musulmon xalqlarining islomga doir diniy tushunchalari yaqqol o'z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Ma'lumki, musulmonlar hayvonlarni so'yish avvalida *bismilloh* so'zini aytishadi. Bu so'z, odatda, biror ishni boshlashdan avval aytiladi. Kabob hozirgi davrda ham o'zbek xalqi ko'p tayyorlaydigan ovqat turlaridan biridir. Ayniqsa, bazmlarda alohida e'tibor bilan tayyorlanadigan taom hisoblanadi.

Tinch ko'ngul birla *qatiqsiz umoch*,

Behki birovi minnati birla *kuloch* [4,180]

Baytda insonniylik fazilatlarini haqida so'z yuritilmoqda. Unga ko'ra bironing minnati bilan shirin kulcha yegandan ko'ra qattiqsiz umoch yegan ma'kul deyilmoqda. Shoir yashagan davrda insonlar muayyan tabaqalarga bo'lingan. Unga ko'ra umoch yo'qsullar yeydigan taom turini; kuloch esa badavlat insonlar yeydigan shirin kulcha ma'nosini anglatgan. She'riy parchada bir

emas uchta oziq-ovqat turi qo'llangan bo'lib, ular: *qattiq, umoch, kuloch*. *Umoch* uvalangan xamir solib pishirilgan suyuq osh taomidir. Ushbu leksema hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'molda emas. Faqatgina, ayrim shevalardagina saqlanib qolgan. Bugungi kunda ushbu taom ayrim o'zbek xalq marosimlaridagina tayyorlanadi.

Qattiq leksemasi "O'zbek tilining izohli lug'ati" da quyidagicha izohlangan: «Sudan tomizg'i solib ivitib tayyorlangan parhez mahsulot. Yangi ivitilgan qattiq. Qattiq to'kilsa, yuqi qolar, ayron to'kilsa, nesi solar. Maqol. *Sudan og'zi kuygan, qattiqni ham puflab ichadi*. Maqol. *Miyaning qatig'i* tarzida ko'chma ma'noda ishlatilish xususiyatiga ham ega. *Sher yana Sherzodning ustiga tashlanishga o'zini chog'lab ko'rdi, lekin miyasining qatig'i chiqib holsizlangani uchun majoli kelmadi*. Ertakdan.

Bir kun aning bazmida *shilon* chog'i,

Shohga ham ishtahi o'lg'on chog'i [4,371]

Baytda bazm jarayoni hamda unda tayyorlanadigan taom haqida so'z bormoqda. Ya'ni bir kuni bazmda shohning ishtahasi o'lgan chog'da, shilon dasturxonga tortildi. Bu yerda shilon – umumiy ovqat, ya'ni podshohlar ziyofatida kambag'al beva-bechoralarga tarqatiladigan taom ma'nosini anglatadi. Ushbu so'z qo'llanilish davriga ko'ra eskirgan bo'lib, bugungi kunda ishlatilmaydi. Adib asarlarida mazkur taom turi ko'p qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Bunga misol tarzida "Muhokamatul lug'atayn" asaridagi quyidagi jummalarni keltirib o'tamiz: "*Va yana ba'zi yemaklardin qaymog' va qatlama va bulamog' va qurut va uloba va mantu va qymog' va urkamochni ham turkcha ayturlar. Va qimizni va suzmani va boxsumni va bo'zani dag'i turkcha ayturlar. Yana tutmoch va umoch va kumoch va tolg'onni ham turkcha ayturlar. Va bu nav' juz'iyotqa mashg'ulluq qilsa bag'oyat ko'p topilur*. [6,157]

Tahlil va natijalar. Ushbu parchada Hazrat Navoiy umuman turkiy xalqlarning bir necha xil taom turlarini keltirganini uchratamiz. Ular: *qaymog', qatlama, bulamog', qurut, uloba, qymog' urkamoch, qimiz, suzma, boxsum, bo'za*. Nomi sanab o'tilgan bu kabi oziq-ovqat nomlari asl turkcha so'z ekanligini adib alohida ta'kidlaydi. *Qaymog'* bugungi kunda ham tilimizda ham faol bo'lgan leksema sanaladi. Bu leksema hozirgi kunda fonetik o'zgarishga uchrab, *qaymoq* tarzida qo'llaniladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'z quyidagicha izohlanadi: «Bir necha vaqt turgan, saqlangan sut betida paydo bo'ladigan yoki sudan separator yordamida yoki boshqa yo'l bilan ajratib olingan quyuq, yog'li mahsulot. Quyuq qaymoq.

Qaymoq bog'lamoq 1) betida qaymoq qatlami hosil bo'lmoq; 2) ko'chma ma'noda *beti qaymoq kabi parda bilan qoplanmoq*. Suv qaymoq bog'labdi (ya'ni yupqa muz bilan qoplanibdi). Murabbo qotib, qaymoq bog'labdi. 2 ko'chma ma'noda kishi yoki narsalarning eng yaxshi qismi, sarasi, asillari. Yigitlarning qaymog'i frontda. Lekin ish sustlashgani yo'q. S. Zunnunova Olov. 3 ko'chma ma'noda biror ish, narsa va shu kabilarning natijasi, hosili, xullasi. Yerning qaymog'i – mehnat qilganniki. Oybek, Olov shabadalar. Qaymog'ini olmoq 1) sutning qaymog'ini ajratmoq; 2) ko'chma natijasini yoki xullasini olmoq. Bir yillik mehnatimizning qaymog'ini oladigan vaqt keldi; 4 Suv betiga yalpoq tosh yoki boshqa narsani otganda, uning bir necha bor suv betiga tegishi, shu tegishdan hosil bo'ladigan holat. Nodir bilan Muzaffar pastroqda kim ko'p «qaymoq» qilish o'ynashardi. Nodir yassiroy tosh olib, suv oqimiga qarata otar, tosh esa suv yuzida sakray sakray, besh-olti «qaymoq» hosil qilardi. J. Abdullaxonov, To'fon".

Shoir qo'llagan *qatlama* so'zining izohi quyidagicha: "Oddiy xamirdan yupqa yoyib, yog'da pishirib olinadigan xalqimizning azaliy hamda milliy taomlaridan biri sifatida bugungi kunda xuddi shu tarzda nomlanadi. Hech qanday fonetik o'zgarishga uchramagan leksema sanaladi. Ushbu leksema bugungi kunda omonim leksema sanaladi. Qatlama – taom nomi, qatlama – harakatni bildirib, fe'l so'z turkumini ifodalaydi.

Navoiyning yuqorida nomi qayd etilgan asarida etimologik jihatdan o'zlashma qatlamga tegishli *mantu* taomi leksemasi ham qo'llangan bo'lib, bu so'z bugungi kunga qadar o'z ma'nosini saqlanib qolgan leksema sanaladi. Ammo tovushlar tarkibi qisman o'zgarishga uchraganini ko'rish mumkin. Hozirda *mantu* taomi nomi *manti* shaklida iste'molda faol bo'lib, qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksema hisoblanadi. Bu taom milliylikimizga aylanib ulgurigan taomlardan biridir.

Navoiy qo'llagan *qymog'* leksemasi turkiy xalqlarda ma'lum va mashhur iste'mol taom nomlaridan biridir. Ammo qisman fonetik o'zgarishga uchrab, *qymog'* shakliga kelib qolgan. U tuxumga un chalib yog'da qovurib olinadigan taom turi sanaladi. Asardagi *urkamoch* leksemasi taom turlaridan birining nomi bo'lib, bugungi o'zbek taomnomasi tarkibida uchramaydi. Adib *qimiz* taom nomini ham qo'llagan bo'lib, u, odatda, biya sutidan maxsus idishlarda bijg'itish yo'li bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi, shifobaxsh ichimlikdir. Misol: *Dala havosi, qimiz, ko'kalamzor dardimga naq davo*. Oybek, Tanlangan asarlar. Ushbu ichimlikni ifodalovchi leksema hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lgan leksema sanaladi. Qo'llanilish davri hamda doirasi chegaralanmagan. Ushbu so'z hech qanday fonetik o'zgarishga uchramagan holda hozirga qadar saqlangan. *Qimiz*, odatda, qipchoq lahjasida so'zlashuvchi xalqlarning ichimligi sifatida qaraladi.

Navoiy asarlarida qator o'simlik nomlari ham tilga olingan bo'lib, ular o'zbek madaniyatining bir qismi sifatida namoyon bo'lgan. Unga doir ayrim misollarni quyida keltirib o'tamiz:

Revu rang ahli muridi bo'lmag'ilkim, Hizr emas,

Hirqasin har aqmaq etsa *baqli* hamqodek yashil [3,286].

Baytdagi *rev* leksemasining asl lug'aviy ma'nosi *makr, hiyla* bo'lib, *hirqa* so'zining lug'aviy ma'nosi esa *darveshlar kiyimi* ma'nosini anglatadi. Uning tavsifi quyidagicha: *makr* va *hiyla* ahlining ustoz bo'lmag'in, har bir ahmoq ust-boshini darveshlar kiyimi kabi semizo't bilan yashil etsa ham Hizr bo'la olmaydi. *Rev* so'zi arxaizm leksema sanalib, bugungi kunda ishlatilmaydi. *Hizr* – payg'ambarlardan birining ismi, *baql* – sabzavot, *hamqo* – semizo't. *Hamqo* so'zining lug'aviy ma'nosi rezavor va poliz ekinlari va ularning ovqatga ishlatiladigan mahsulidir. Bu leksema arxaizm sanalib, bugungi kunda ishlatilmaydi. Uning o'rniga *semizo't* leksemasi ishlatiladi. *Baql* leksemasi o'zlashma qatlamga tegishli bo'lib, eskirgan leksema sanaladi. Bugungi kunda uning o'rniga *sabzavot* leksemasi ishlatiladi.

Og'zidan achchiq so'z aytib, zohir etsa zaxru chashm,

Ayb emastur *pista* sho'ru tong emas **bodom** talh [1,106].

Ushbu baytda shoir insonlarga nisbatan ibratli fikr yoki hikmatli so'z tarzida murojaat qilmoqda. Ayrim insonlar muomalasi qo'pol bo'lib, fikrlarini insonlarga chiroyli tarzda yetkaza olmaydilar. Baytning tavsifi quyidagicha: ba'zi kishilarning og'zidan doim achchiq so'z chiqsa, so'zlarida zahar namoyon etsa, bunday insonlar xuddi pistoning sho'rligi-yu, bodomning talhligiga o'xshaydi. Ushbu baytning bugungi kundagi sinonimi tarzida ushbu maqolni eslatib o'tish mumkin: "Achchiq so'zlab, shirin javob kutma". Baytda majoziy ma'no ifodalangan *pista, bodom* kabi leksemalar bugungi kunda ham adabiy tilimizda faol leksemalar bo'lib, o'zlashma qatlamga mansub, qo'llanilish doirasi hamda davri chegaralanmagan leksema sanaladi. *Achchiq, sho'r, talh* kabi leksemalar o'zaro assosiativ munosabatni yuzaga chiqargan. *Sho'r* hamda *talh* leksemalari *bodom* so'zidagi shirinlik semasi bilan kontekstual antonimlikni yuzaga keltirgan. *Bodom* ming yillardan beri xalq tabobatida shifobaxsh o'simlik sifatida mashhur. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da *bodom* leksemasi forsdiy o'zlashma qatlamga tegishli ekanligi aytilib, u

quyidagicha izohlangan: “1 Atirgullilar oilasiga mansub, sermoy mag‘zi iste‘mol qilinadigan daraxt. Olmadan bodom bo‘lmas, tagi past odam bo‘lmas. Maqol; 2 Shu daraxtning mevasi (danagi). Achchiq bodom. Bodom yog‘i. Odam — odam bilan, pista - bodom bilan. Maqol”.

Shirada zardolu etib qand hal,

Yo‘q kadu **amrud** kaduyi asal. [4,302]

Ushbu baytda qand, asal so‘zlari sinonimik qatorni, zardolu, amro‘d leksemalari mevalar qatorini, kadu leksemasi esa poliz mahsuloti nomlarini yuzaga keltirgan. Birinchi misrada shirada zardolu qanddek shirin, ya‘ni qand vazifasini bajaruvchi deyilsa, amro‘d, ya‘ni nok undanda shirin asalga qiyoslangan. *Zardolu* leksemasi bugungi kunda *o‘rik* tarzida ishlatiladi hamda sariq olixo‘ri ma‘nosini anglatadi. Navoiy ijodida nok mevasi tushunchasi boshqa leksemalar bilan ham ifodalanganini kuzatish mumkin. Shoir mazkur tushuncha o‘rnida ba‘zan *nashvati*, *olmurut* kabi leksemalarni qo‘llagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak, Hazrat Navoiy asarlari tilida oziq-ovqat va o‘simlik ma‘nosini ifodalovchi leksemalar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Ularni ikki guruhga – arxaizm va istorizm leksemalarga ajratish mumkin. Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat, ichimlik va o‘simlik tushunchalarini ifodalovchi nomlar o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, dunyoqarashi, tafakkuri, ijtimoiy taraqqiyoti, maishiy hayoti xususida keng ma‘lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir. Ular milliy va tarixiy koloritni o‘zida mujassamlashtirganligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur oziq-ovqat va o‘simliklar o‘zbek xalqining qadimiy urf-odat hamda an‘analaridan muayyan darajada aniq ma‘lumot beradi. Shunga muvofiq adib asarlaridagi oziq-ovqat va o‘simliklar kabi boshqa realiyalarni ham lingvokulturologik aspektida o‘rganish hozirgi o‘zbek tilshunosligi uchun ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar / Xazoyin ul-maoniy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Uchinchi tom. – Toshkent: Fan, 1988.
2. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob / Xazoyin ul-maoniy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. To‘rtinchi tom. – Toshkent: Fan, 1989.
3. Alisher Navoiy. Badoe‘ ul-vasat / Xazoyin ul-maoniy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Beshinchi tom. – Toshkent: Fan, 1990.
4. Alisher Navoiy. Hayratul-abror / Xamsa. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Yettinchi tom. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. / Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. O‘n oltinchi tom. – Toshkent: Fan, 1989.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I-V. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008. – T. I. -417 b.